

QORAQALOPOG`ISTON SHAROITIDA PIYOZNING IKKI USUL BO`YICHA NAVLARINING HOSILDORLIK KO`RSATKICHLARI

D.Hayitboyev¹

Yuldashev Suxrobjon²

¹*Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti,*

²*Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Piyozni ekish usullari va ularning afzaliklari hamda ularni yangi usularda hosildorligini ko`paytirish usullari. Urug` sarfi va ularni ko`chatlari orqali ekish samaradorliglari.

Kalit so`zlar. Piyozni ekish usullari, ekish muddatlari, ulardan samarali foydalanish, oziq-ovqat xafsizliklarni taminlash hamda tuproq sutrukturasini yaxshilash.

Piyoz navlarini o`stirilganda ularning o`rtacha hosildorligi gektaridan 150 sentnerdan 200 sentnergacha o`zgarib ko`chatlab ekish bo`yicha ushbu ko`rsatkich 158 sentnerdan 216 sentnergacha ko`tarilganligi qayd etildi.

Ushbu ko`rsatkichlarni har bir navda ko`chatlab ekish bo`yicha izohlaydigin bo`lsak Kaba-132 standart navda gektaridan o`rtacha hosildorlik 281 sentner hosildorlikka erishildi. Bunda sochma usul bo`yicha hosildorlik 238 sentnerdan 254,7 sentnergacha o`zgardi.

1-jadval

Piyoz navlarining hosildorligi va fenologik ko`rsatkichlari

Navlar	Sochma usulda ekilganda umumiy hosildorlik t	Ko`chatlab ekilganda umumiy hosildorlik t	Sochma usulda ekilganda 1dona piyoz og`irligi gr	Ko`chatlab ekilganda 1dona piyoz og`irligi gr	Ikkala usulda ekilganda umumiy hosildorlik (%)da
Kaba-132 (st)	23,8	28	92	130	86
Karatol	26,6	29,8	98	143	88
Oqdur	25,4	28,6	116	170	86

Lione F ₁	21,8	24	78	112	76
Volf F ₁	20	23	72	100	74
Qizil piyoz	22	26	91	149	83

Ushbu ko'rsatkichlarni Karatol navida kuzatilganda gektaridan o'rtacha 226 sentener hosildorlikka erishilib, ko'chatlab ekish bo'icha 254,4 sentnerdan 278 sentnergacha ko'tarilganligi qayd etildi. eng yuqori hosildorlik ko'rsatkichlari.

Oq dur navidan olinib, gektaridan o'rtacha 254,8 sentnarni tashkil qilib ko'chatlab ekish bo'yicha hosildorlik 260 sentnerdan 286 sentnergacha kuzatildi, Lione navi esa 218 sentener, ko'chatlab ekish bo'yicha 241sentnarni tashkil qildi, Volf navi 201 sentener ko'chatlab ekish bo'yicha 234 sentnarni tashkil qildi. . Jadvalda esa standart Kaba - 132 naviga nisbattan Karatol va Oqdur navlarining hosildorlik ko'rsatkichlari taqqoslangan bo'lib, bunda boshpiyozning Kaba-132 navi standart naviga nisbattan 16,2 % yuqori hosil berganligi kuzatildi. Oqdur navi esa standart naviga nisbattan 26,1 % yuqori hosil berganligi qayd etildi.

Bundan tashqari ushbu jadvaldan o'rganilgan navlarda tovar hosil chiqimi va o'rtacha bir dona piyozbosh vazni ham o'rganilgan bo'lib ushbu ko'rsatkichlar quyidagicha taqqoslandi.

Standart Kaba - 132 navidan tovar hosil chiqimi gektaridan 231,2 sentnarni yoki 86,4 %ni tashkil etdi.

Eng yuqori tovar hosili chiqimi Karatol navida kuzatilib gektaridan 250,5 tsentnarni yoki 88,8 % ni tashkil qildi. Tajribada o'rtacha bir dona boshpiyoz vazni o'rganilganda esa standart navida 92 grammni, Oq dur navida 116 grammni,

Karatol navida esa 98 grammni Lione 78 grammni, Volf 72 garmmni tashkil etdi. Bundan tashqari ushbu o'rganilgan navlarda tovar hosil chiqimi va o'rtacha bir dona piyozbosh vazni ham o'rganilgan bo'lib ushbu ko'rsatkichlar quyidagicha taqqoslandi.

Oziq moddalarga talabi

Piyoz ildizi yer yuzasida joylashganligi uchun tuproq namligi va ozuqasiga talabchan. Bir tonna hosil olish uchun tuproqda 10,6 kg azot, 8,3 kg fosfor, 4,6 kg kaliy solish zarur. O'rtacha tuproqlarda gektariga 20-30 tonna go'ng, azot 200, fosfor 150, kaliy 75 kg; o'tloq va o'tloq-bo'z tuproqlarda azot 160, fosfor 150 va kaliy 80 kg hisobida beriladi. Bu mineral moddalar o'simlikning o'sib rivojlanishiga katta tasir ko'rsatadi. Fosfor yillik normasining 75% i, kaliy va go'ng hamma me'yori shudgordan oldin, fosforning qolgan 25% i esa ekishdan oldin yoki ekishda beriladi. Azotli o'g'itlar 50% i o'toqdan so'ng 1-2 chinbarglik davrida, qolgan 50% i esa piyozlar shakllanish davrida solinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A. ‘Himoyalangan yer sabzavotchiligi” T-2018
2. Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A.”Sabzavotchilik” Toshkent-2008
3. G.T.Erejepova, A.S.Abdigapbarov, N.N. Ismoilova “Sabzavotchilik”N., “Bilim”2024. O`quv qo`lanma.

